

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI

60310104-Iqtisodiyot (*tarmoqlar va sohalar bo'yicha*)
60410100– Buxgalteriya hisobi va audit (*tarmoqlar bo'yicha*)
60410400-Moliya va moliyaviy texnologiyalar
60410500- Bank ishi va audit
**60411200- Markiting ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ikkinchi va
undan keyingi ta’limga kiruvchilar uchun maxsus fanlardan**

D A S T U R

SAMARKAND – 2025

ANNOTATSIYA

Dastur 60310104 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha), 60410400-Moliya va moliyaviy texnologiyalar, 60410500 - Bank ishi va audit, 60411200- Markiting ta'lim yo'nalishlarining 2025/2026 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

TUZUVChILAR:

F.B.Axrorov – TDIU SF – O'quv ishlar bo'yicha direktori o'rinbosari, i.f.n., dotsent.

R.G'aybullayev – “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrası mudiri, professor v.b.

M.Mardonov - “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrası mudiri (PhD).

O.Pardayeva – TDIU SF – “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrası mudiri, dotsent.

U.Ubaydullayev – “Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrası mudiri (PhD).

U.Xudoyarov – “Tabiiy, ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrası mudiri, dotsenti.

TAQRIZChILAR:

Sh.T.Hasanov – Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori, i.f.d., professor.

A.B.Taniyev - TDIU Samarqand filiali Buxgalteriya hisobi va moliya fakulteti dekani, professor v.b.

Dastur Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialining 2025-yil 30-iyundagi № 11-sonli O'quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan va tasdiqlangan.

KIRISH

Dastur 60310104 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha), 60410400-Moliya va moliyaviy texnologiyalar, 60410500 - Bank ishi va audit ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ikkinchi va undan keyingi ta'limga kiruvchilarning iqtisodiy bilimlar va axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy bilimlari hamda amaliy ko'nikmalarini aniqlash va baholashga qaratilgan.

60310104 - Iqtisodiyot (*tarmoqlar va sohalar bo'yicha*) - “Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborotga mansub fanlar” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u turli mulk shakllariga tegishli tarmoq, sohalarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari, moliya, kredit va sug'urta muassasalari, davlat hamda mahalliy hokimiyat organlari, akademik va tarmoq, ilmiy tadqiqot tashkilotlari, maktabgacha, umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarning iqtisodiy, moliya, marketing, ishlab chiqarish – iqtisodiy va tahlil xizmatlarini o'z ichiga oladi, tarmoqlar va korxonalarni rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik kobilyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublari bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (*tarmoqlar bo'yicha*) – iqtisodiy fanlar sohasidagi yo'nalish bo'lib, u Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar faoliyatining barcha yo'nalishlari, iqtisodiy-huquqiy va tashkiliy asoslari, faoliyat tamoyillari, likvidliligi va to'lov qobilyatini ta'minlash bilan bog'liq kompleks masalalar, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarda buxgalteriya hisobi va audit faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq faoliyati tamoyillari, usullari va vositalari majmuini qamrab oladi.

60410400-Moliya va moliyaviy texnologiyalar bakalavriyat ta'lim yo'nalishi - “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasiga oid yo'nalish bo'lib, u davlat moliyasi, xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi, uy xo'jaligi moliyasi, davlat budjeti, mahalliy budjet, ijtimoiy ta'minot, budjetdan moliyalashtirish, g'aznachilik, davlat xaridi, davlat maqsadli fondlari, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy nazorat, moliya bozoridagi operatsiyalar, moliyaviy risklarni boshqarish, aksiyadorlik jamiyatlari moliyasi, moliya-sanoat guruhlar va transmilliy korporatsiyalar faoliyat mexanizmi, xolding kompaniyalari moliyasi, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar moliyasi, qo'shma korxonalar moliyasi, qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatni tashkil etish, moliya bozoridagi operatsiyalarni yuritish, o'zaro hisob-kitoblarni tashkil etish, korporativ tuzilmalar moliyaviy resurslarini boshqarish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

6010500- Bank ishi va audit bakalavriyat ta'lim yo'nalishi – tijorat banklari faoliyatining barcha yo'nalishlari, iqtisodiy-huquqiy va tashkiliy asoslari, faoliyat tamoyillari, likvidliligi, barqarorligi va to'lov qobilyatini ta'minlash usullari, banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish va yuritish, barcha bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobida aks ettirish, ichki nazoratning tashkil etilishi, bank faoliyati auditini tashkil qilish va o'tkazish, moliyaviy hisobotlarni tuzish, moliyaviy hisobotlarni auditdan o'tkazish, auditorlik xulosalarini tayyorlar, bank mijozlariga kompleks xizmat ko'rsatish masalalar majmuasini qamrab oladi.

60310104 - Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha), 60410100 – Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha), 60410400-Moliya va moliyaviy texnologiyalar, 60410500 - Bank ishi va audit ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ikkinchi va undan keyingi ta'limga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasiga asosan 4 ta asosiy

fanlari bo'yicha: "Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizmlar", "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi", "Falsafa" va "Iqtisodiyot nazariyasi" fanlaridan test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar o'z negizida qamrab olgan ma'lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

IQTISODIYOTDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR VA TIZMLAR fani bo'yicha:

Iqtisodiyotda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish; elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishning yaxlit tizimini yaratish; davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etishning imkoniyatlari; afzalliklari; dasturiy va texnologik ta'minoti; zamonaviy texnik vositalar; operatsion tizimlar va zamonaviy dasturlarda axborotlarni qayta ishlash va hisob-kitoblarni amalga oshirish; hisoblash jarayonlarini avtomatlashtirish tamoyil va uslublari; Axborot texnologiyalar infratuzilmasining komponentlari. Iqtisodiy masalalarni yechish jarayonida foydalaniladigan axborotlarni kiritish, chiqarish va saqlashning zamonaviy qurilmalarning turlari. Biznesda qo'llaniladigan kompyuterlar turlari. Texnik vositalarni rivojlanish tendensiyalari. Iqtisodiy masalarni yechish jarayonida foydalaniladigan dasturiy mahsulotlarning tasnifi va vazifalari. Microsoft Windows, Apple Macintosh, Unix va Linux operatsion tizimlarining umumiy ta'rif. Mobil operatsion tizim Android, Windows va IOS ta'rif. Biznesda foydalaniladigan amaliy dasturlar. Dasturiy mahsulotlarni rivojlanish tendensiyalari. Matnli redaktorlari asosiy tushunchasi va ishlash prinsiplari. MS Office MS Word, Libre Office Writer, Open Office Writer redaktorlarining tahlili. Jadvalli redaktorlari asosiy tushunchasi va ishlash prinsiplari. Ma'lumotlarni ko'rib chiqish, qayta ishlash va umumlashtirish instrumentlari. Ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari. Iqtisodiy axborotlarni tahlil qilish uchun ma'lumotlarni vizuallashtirish vositalaridan foydalanish. Ma'lumotlarni statistik tahlil qilish vositalari. Taqdimot redaktorlari asosiy tushunchasi va ishlash prinsiplari. Prezi, Microsoft PowerPoint, Apple Keynote, Google Slides, LibreOffice Impress redaktorlarining tahlili. Taqdimot redaktorlarida amallarni bajarish. Kompyuter tarmoqlarining tushunchasi va turlari. Tarmoqli texnologiyalarni milliy iqtisodiyotning tarmoq va sohalarida foydalanish. Internet xizmatlari bilan ishlash. Ma'lumotlar bazalari va ularni yaratish modellari. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlarining asosiy vazifalari va xususiyatlari. Katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data) qayta ishlash texnologiyalari. Algoritm tushunchasi va uning xususiyatlari. Hisoblash jarayonlarni grafik aks ettirish. Hisoblash jarayonlarni turlari. Dasturlash tillarini haqida umumiy ma'lumot. Tilning asosiy elementlari. Qiymat berish, kiritish va chiqarish operatorlari. __ Tarmoqlanuvchi hisoblash jarayonini dasturlash. Siklik hisoblash jarayonini dasturlash. Elektron bozor va elektron tovarlar tushunchasi. Elektron biznes va elektron tijorat modellari. Internet-banking; Internet-treyding; Internet-sug'urta, Internet-marketing xizmatlari. Mobil-tijorat. Axborot xavfsizligi

tushunchasi va zaruriyati. Raqamli iqtisodiyotda axborot xavfsizligini ta'minlash usullari. Kriptografik axborot xavfsizligi usullarini qo'llash. Tarmoq axborot xavfsizligi tahdidlarini oldini olish usullari.

IQTISODIYOT NAZARIYASI fani bo'yicha:

Ushbu fan iqtisodiyotning asosiy fundamenti bo'lib, u birinchi kursning birinchi semestrda o'qitiladi. Iqtisodiyot nazariyasi fanining maqsadi iqtisodiyotga kirish, bozorning vazifalarining amal qilishini o'rganishni o'qitishga qaratilgan. Fanning tarkibini tushunish tadbirkorlik qarorlarini qabul qilish, iqtisodiy siyosatni tushunish va ishlab chiqish, umuman olganda zamonaviy iqtisodiy faoliyatni o'rganish kabi jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ishlab chiqarish omillari, ishlab chiqarish imkoniyatlari qiymati va ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chiziqlarini o'z ichiga olgan fundamental g'oyalar va tushunchalar keltirilgan. Iqtisodiy resurslarning taqsimlanishi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida resurslarni taqsimlashning asosiy tamoyillari narx mexanizmi orqali ko'rib chiqiladi. Talab va taklifning bozor kuchlari, bozor muvozanati va nomutanosiblik, egiluvchanlik ushbu bo'limning asosini tashkil etadi. Mikroiktisodiy qaror qabul qilinishi. Mikroiktisodiyot o'rganishning muhim sohasidir va bu yerda asosiy asosiy qaror qabul qiladiganlar: banklar, uy xo'jaliklari, ishchi kuchi, kasaba uyushmalari va tadbirkorlarning roli orqali amalga oshiriladi. Davlat va makroiqtisodiyot. Davlatlar turli xil makroiqtisodiy maqsadlarga ega va ko'pincha ularga erishish uchun qo'llaniladigan choralarni tanlash o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keladi. O'zgarishlarning sabablari va oqibatlari va tegishli siyosatlarni ko'rib chiqish uchun turli o'lchovlarni qo'llash kerak. Iqtisodiy rivojlanish. Iqtisodiyot rivojlanar ekan, aholi, turmush darajasi, qashshoqlik va daromadlarni qayta taqsimlashda o'zgarishlar bo'ladi. Shu sababli, turli mamlakatlarda aholi soni va tuzilishidagi o'zgarishlar va rivojlanishning boshqa ta'sirlari o'rganiladi. Xalqaro savdo va globallashuv. Mamlakatlar o'rtasidagi savdoning ahamiyati va globallashuvning kuchayishi o'rganilmoqda. Ixtisoslashuv, erkin savdo, transmilliy kompaniyalarning roli, valyuta kurslari va to'lov balansi barqarorligi. Iqtisodiyotga kirish. Iqtisodiy tizim turlari. Talab, taklif, bozor muvozanati. Elastiklik. Iste'molchilar tanlovi nazariyasi. Ishlab chiqarish va xarajatlar. Mukammal bozor va monopoliya. Monopolistik raqobat va oligopoliya. Bozordagi muvaffaqiyatsizliklar va samaradorlik. Davlatning iqtisodiy roli. Ish haqini aniqlash. Daromadlarning taqsimlanishi, tengsizlik va qashshoqlik. Makroiqtisodiyotga kirish. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar. Qisqa muddatli iqtisodiy o'sish. Uzoq muddatli iqtisodiy o'sish modellari. Bank tizimi. Pul, inflyatsiya. Pul-kredit siyosati. Jamg'arma, investitsiya. Moliyaviy tizim. Davlat byudjeti va fiskal siyosati. Ishsizlik. Biznes sikllari. Xalqaro savdo. Xalqaro valyuta munosabatlari va valyuta kursi.

IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI fani bo'yicha:

Ushbu fan ijtimoiy-iqtisod fan bo'lib, bakalavr ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Ushbu fanda iqtisodiy tafakkur tarixi va iqtisodiy tahlillar sharhi berilgan. Darsda shuningdek, iqtisodiyotni fan va mafkura sifatida rivojlantirishning ijtimoiy va axloqiy jihatlari ko'rib chiqiladi. Kurs quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi: Kirish, Buyuk dinlar va iqtisodiy fikrlarning kelib chiqishi; Yunon va O'rta asrlar tafakkuri; O'rta Osiyo mutaffakirlarining iqtisodiy qarashlari; O'tish davri; Smitdan oldin G'arbiy Evropa; Smit, Rikardo, Marks; Makroiqtisodiyotning paydo bo'lishi, Veblen, Keyns, Shumpeter; Fridman, Xaek; Alohida iqtisodiy qarashlar, Markaziy Evropa iqtisodiy fikrlari hamda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish. Antik davrdan XX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan iqtisodiy fikrning rivojlanishi haqida umumiy ma'lumot berish. Iqtisodchilar har doim duch kelgan va hal qilishga uringan muammolar mohiyatiga alohida e'tibor berishlari kerak. Muammolarni hal qilishda iqtisodchilarning faoliyatidagi uzluksizlik va o'zgarishlarni tushunish iqtisodiyotni fan sifatida shakllanish evolyusiyasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Fanni muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng talabalar iqtisodiy ta'limotlar tarixidagi asosiy maktablar va tendensiyalarni ajrata olishlari va XIX-XX asrlar iqtisodiy yondashuvlarning analitik asoslarini tushunishlari kerak. G'oyalar kuchi. G'oyalar ta'limoti tarixi. Iqtisodiy atamalari tarixi. Iqtisodchilar tarixi. Iqtisodiy g'oyalar tarixi. Sivilizatsiyalarning vujudga kelishi. Qadimiy g'oyalar. Qadimiy dinlar. Yunon faylasuflari: Gomer, Ksenofont, Suqrot. Aristotelning iqtisodiy qaydlari. Temuriylar davrigacha bo'lgan iqtisodiy g'oyalar. Boylik, etishmovchilik va mo'l-ko'pchilik. Uning echimlari va yo'nalishlari. Xususiy va xo'jalik mulki. Savdo va xususiy mulk. Zamonaviy davrning boshlanishi. Pul va savdo munosabatlari. Siyosiy iqtisodning yuzaga kelishi. Taniqli merkantalistlar. U.Petti g'oyalari. Kantellion g'oyalari. A.Smit hayoti va ijodi. Klassik iqtisodning yuzaga kelishi. Rikardo, Maltus va Xyum ta'limoti. Utopik sotsiolistlar. Marksning hayoti va ijodi. Kommunistlar manifesti. Dialektik materializm. Iogan Gotlib Fixte. Faust Gyote. Karl Kniesning eski tarixiy maktabi. Keynsning hayoti va ijodi. Shumpeter g'oyalari. Sotsialistik iqtisodiyot to'g'risidagi fikrlar, Markaziy Evropa ta'limoti. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureatlarining g'oyalari. O'zbekiston Respublikasining bozor munosabatlariga o'tish konsepsiyasi va strategiyasi

FALSAFA fani bo'yicha:

Insoniyat yaratgan ma'naviy boyliklar orasida falsafa ilmida to'plangan hikmatlar xazinasi, atoqli faylasuflar merosi, ularning asarlari muhim o'rin tutadi. Har bir davlatning buyuk donishmandlari o'z yurti va xalqining tafakkuri, ruhiyati hamda orzu intilishlarini falsafiy ta'limotlarda ifoda etganlar, jamiyat tinchligi, farovonligi va millat ravnaqi uchun xizmat qiladigan yuksak g'oyalari o'rta tashlaganlar. Xalqni buyuk maqsadlar sari yetaklovchi bu g'oyalarning muayyan

davr mafkurasiga aylanishida falsafiy bilimlar katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiylik, tarixiylik, mantiqiylik, ob'ektivlik tamoyillariga amal qilingan holda an'naviy usullar, davra suhbat, klaster, baxs-munozara, aqliy hujum, prezentatsiya kabi zamonaviy pedagogik texnologiya vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq. O'quv jarayoni bilan bog'liq ta'lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma'ruzalar o'qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg'or pedagogik texnologiyalardan va mul'timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o'ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo'yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish. Falsafa atamasining kelib chiqishi. Falsafa shakllanishining asosiy bosqichlari. Dunyoqarashning tuzulishi Dunyoqarashning tarixiy shakllari. Mif dastlabki dunyoqarash shakli. Mifalogik va diniy dunyoqarashning aloqasi va farqi. Qadimda sharqda asotiriy tasavvurlar va falsafiy bilimlarning paydo bo'lishi. Misr va falsafiy maktablari. Qadimgi xindistonda falsafiy maktablar. Markaziy osiyoda "Avesto" ta'limotidagi falsafiy fikrlar. Qadimgi yunon-Rim falsafiy maktabi. Milet maktabi uning Misr Bobil, Xind falsafasi ildizlari bilan bog'liqligi Suqrotgacha bo'lgan falsafiy tizim Suqrot maktabi. Borliq tushunchasining taxlili. Falsafa tarixida borliq muommosi. Borliq va yo'qlik dialektikasi. Borliq shakllarining tasnifi: tabiat borligi va ma'naviy borliq ijtimoiy borliq va inson borlig'i. Globallashuv – yangi falsafiy mavzu. Globallashuv xodisasi va globalistika. Global jarayonlarning shakllanish tarixi Global muommolarning turli darajalari. Tushuncha tafakkur shakli sifatida Mantiq ilmining asosiy masalalari va ularni tadqiq etish yo'nalishlari. Tafakkurning mantiqiy shakllari va qonunlari. Formal mantiqning oredmeti va strukturalari. Mantiq ilmining fanlar tizimidagi o'rni.

**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialidagi ikkinchi va undan keyingi ta'limga kiruvchilar uchun o'qishga qabul qilish uchun
BAHOLASH MEZONI**

To'plash mumkin bo'lgan maksimal ball 50 ta test savolidan - 100 ball. TDIU Samarqand filialidagi ikkinchi va undan keyingi ta'limga kiruvchilar uchun o'tkaziladigan tanlovda ishtirok etadigan abituriyentlar, O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan muayyan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul ko'rsatkichlari asosida tanlovda ishtirok etadilar. Kirish imtihon natijalari abituriyentlar to'plagan ballariga qarab yuqoridan pastga, belgilangan muayyan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul ko'rsatkichlarigacha ya'ni qabul chegarasigacha olinadi va talabalikka tavsiya etiladi.

Kirish imtihoni natijalari imtihon o'tkazilgan kunning keyingi kuni TDIU Samarqand filialining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Информационные технологии: учебник / L.N. Demidov, V.B. Ternovskov, S.M. Grigorev, D.V. Krasnapev. — Moskva: KNORUS, 2017. - 222 s.
 2. Lapidus L.V. Digital Economy (na angl. yaz.): Uchebnoe posobie dlya bakalavrov i magistrov po napravleniyam «Ekonomika» i «Menedjment». - M.: RUT (MIIT), 2018. - 42 s.
 3. R.Dadabayeva va boshqalar. «Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2019. - 455 b
 4. Информационные системы и технологии в экономике и управленii: учебник dlya bakalavrov / pod red. V. V. Trofimova. - 4-e izd., pererab, i dop. - M.: Izdatelstvo YUrayt, 2016. - 544 s.
 5. Laudon J. Laudon K. Management Information Systems. Managing the Digital Firm. 15th Edition /9780134639710.html
 6. RDadabaeva, I.Jukovskaya, D.Xashimova. Informatsionnokommunikatsionnye texnologii i sistemy v ekonomike. Uchebnik. - T.: «Iqtisodiyot», 2019. - 602 str.
 7. Principles of Information Systems. Stair Ralph Stair George Reynolds. Principles of Information Systems. 13th Edition
 8. N. Gregory Mankiw. Essentials of Economics. 8th Edition. Cengage Learning; 9. edition (January 1, 2017). ISBN-13: 978-1337091992
 10. Economics (Irwin Economics). Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue, Sean M. Flynn. — 21th edition. 2018.
 11. B.D. Xajiyev, K.K. Mambetjanov. Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik. - T.: «IQTISODIYOT», 2019. - 552. str.
 12. Xodiyev B.Yu., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: Barkamol fayz-media, 2017. – 783. byet.
 13. R. Glenn Hubbard, A. Patrick O'Brian. Essentials of Economics. 6th edition. Pearson. New York. 2019.
 14. John Sloman, Dean Garrat. Economics. Pearson. 10th edition. UK. 2018.
 15. Anderson, David A. (2019) Survey of Economics. New York: Worth. ISBN 978-1-4292-5956-9
 16. Roger A. Arnold. Economics 13th Edition, Kindle Edition. (2018). ISBN-13: 978-1337617383
 17. Makkonell K.R., Bryu S.L., Flinn Sh.M. Ekonomiks: prinsipy, problemy i politika: Uchebnik: Per. s angl. 21-ye izd. M.: INFRA-M, 2019. - 1152. s.
 18. Ekonomicheskaya teoriya: uchebnik / S.S. Nosova. — 4-ye izd., ster. – Moskva: KNORUS, 2017. - 792. s.
 19. Hunt E.K. and Mark Lautzenheiser. History of Economic thought. Copyright. by M.E. Sharpe, Inc. 2011
 20. Jürgen Georg Backhaus. Handbook of the History of Economic Thought. Insights on the Founders of Modern Economics. Springer Science+Business Media, LLC. 2012
 21. Agnar Sandmo. Economics Evolving: A History of Economic Thought. 2011 Pages: 504. ISBN: 9780691148427
 22. Tashmatov SH., Asatullaev X., Allaberganov Z. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. Darslik. T.: Iqtisod-moliya, 2019.
- Qo'shimcha adabiyotlar

23. Tashmatov SH., Xasanxonova N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-moliya, 2019.
24. Bo Sandelin, Hans-Michael Trautwein, Richard Wundrak. A Short History of Economic Thought. Third edition. New York, NY 2014.
25. Alessandro Roncaglia. A Brief History of Economic Thought. Cambridge University Press, 2017.
26. Joseph R. Cammarosano. The Development Of Economic Thought: An Overview. Lexington Books, 2018. <https://b-ok.asia/book/5302873/e20338>
27. YAdgarov YA.S. Istoriya ekonomicheskix ucheniy: Uchebnik. - 4-e izd. M.: INFRA-M, 2014.
28. Sinelnik L.V. Istoriya ekonomicheskix ucheniy: Uchebnoe posobie. M.: KNORUS, 2014
29. Binshtok F.I. Istoriya ekonomicheskix ucheniy: Ucheb.posobie. – 3-e izd. M.: RIOR, 2013.
30. Mirziyoev Shavkat Miromonovich. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O'zbekiston, 2016. - 56 b.
31. Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017. – 104 b.
32. Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 48 b.
33. Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rin olgan. /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: : "O'zbekiston", 2017. – 488 b .
34. Mirziyoev, Shavkat Miromonovich. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz./Sh.M.Mirziyoev.–Toshkent: O'zbekiston, 2017.-592 b.
35. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: UFMJ, 2010.
36. Abdulla Sher. "Estetika". Darslik. – T. O'zbekiston. 2016.
37. Osnovi filosofii. Uchebnik. Izdaniye.2-ye. pererabotannoye, dopoln. Pod red. M.A.Axmedovoy. V.S.Xana. –T. Mehnat. 2004.
38. Po'latova D, Izzetova E. Filosofiya. –T. Sharqshunoslik. 2012. 340-b.
39. Falsafa. Axmedova M. taxriri ostida.-T.: UFMJ, 2006.
40. Xasanov B. G'ulomov. Muomala madaniyati. Darslik. –T. Iqtisod-moliya. 2010.
41. Sharipov M. Fayzixo'jayeva D. Mantiq. –T. Universitet.2007.
42. Shermuhamedova N.A. Falsafa. -T.: "Noshir", 2012. 1207 bet.

Axborot manbaalari

1. www.gov.uz – www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi davlat portal
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlar milliy bazasi
3. www.ziynet.uz - O'zbekiston Respublikasi ta'lim portal
4. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining rasmiy sayti
5. www.wikipedia.org- Erkin ensiklopediya
6. www.UzReport.uz –O'zReport agentligining axborot sayti
7. www.citforum.ru- axborot texnologiyalar bo'yicha axborot sayti
8. www.tradingeconomics.com – ekonomicheskije pokazateli
9. www.philosophy.ru.
10. www.intencia.ru.
11. <http://www.anthropology.ru>
12. <http://www.ido.rudn.ru>.
13. <http://www.filosofia.ru>.
14. <http://www.falsafa.dc.uz>.
15. <http://www.phenomen.ru>.
16. <http://www.lib.ru/FILOSOF>.
17. <http://www.filam.ru/sait.phg>.
18. [www. Ziynet.uz](http://www.Ziynet.uz)